

# **YERGA ISHLOV BERISH USULI**

**XUDAYBERDIEV ABDUAZIZ ABDUVALIEVICH**

**Jizzax politexnika instituti, t.f.n., dotsent**

**NARBEKOV NODIR NARMATOVICH**

**Jizzax politexnika instituti, dotsent v.b**

**SATTAROV MAMADALI MARJONKULOVICH**

**Jizzax politexnika instituti, assistent**

**KABILOV BEKZOD UKTAM O‘G‘LI**

**Jizzax politexnika instituti, assistent**

**Annotatsiya:** Maqlada Dokuchaevning yer genetika ta’limoti taxlil qilinib, ona jins bo‘lgan joyda qarama-qarshi jins bo‘lishi muqarrar ekanligi va bu holat unumdorlik oshishining asosiy omili ekanligigi urg‘u berilgan.

**Kalit so‘zlar:** tuproq, ona jins, tuproqshunoslik, chirindi, eksperiment, oziqlanish.

**Аннотация:** В статье кратко анализировано генетические учение Докучаева и сделан вывод о том, что, где есть материнское тело, там должен быть и тело противоположного пола которые способствует увеличению урожайности земли.

**Ключевые слова:** почва, материнская порода, почвоведение, гумус, опыт, питание.

**Annotation:** The article briefly analyzes the genetic teachings of Dokuchaev and concludes that where there is a mother’s body, there must be a body of the opposite sex, which helps to increase the productivity of the land.

**Key words:** soil, mother rock, soil science, humus, experience, nutrition.

Aholining o‘sib borayotgan ehtiyojini qondirish uchun yerlardan oqilona foydalanish, ekinlar hosildorligini oshirish talab etiladi. Yerga ishlov berishda qo‘llanilgan har bir tadbir birinchi navbatda tuproqqa ta’sir etadi. Natijada


tuproqning tuzilishi,fizik-kimyoviy xossalari o‘zgarib, o‘simliklarning yashash sharoiti yaxshilanadi. Shuning uchun ham tuproqshunoslik fani dehqonchilikning ratsional asosi hisoblanadi. Demak, tuproqshunoslik asoslarini bilmasdan turib, o‘simliklarning tuproqdan oziqlanish qonuniyatlarini va shuningdek, fizik-ximik xossalaringning qay darajada ta’sir etishini to‘la tushunish qiyin. O‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishini ta’minlash xususiyatiga ega bo‘lgan yerning ustki g‘ovak unumdar qatlami tuproq deyiladi. Tuproq qishloq-xo‘jalik ishlab chiqarishining birdan-bir vositasi va har bir mamlakatning bitmas-tuganmas tabiiy boyligi hamda kishilik jamiyati uchun zaruriy oziq-mahsulotlari va turli xomashyolar yetishtiradigan asosiy va yagona manbaidir. Tuproq ma’lum sharoitdagi turli tabiiy faktor va tirik organizmlarning birgalikdagi o‘zaro ta’siri natijasidagi yer yuzidagi har xil tog‘ jinslaridan paydo bo‘lgan.Tuproq murakkab tabiiy jism bo‘lib, o‘ziga xos tuzilishga, tarkib va boshqa bir qancha xossalarga hamda rivojlanish xususiyatlariga ega.

Tuproqda o‘simlik va hayvonlar qoldig‘idan iborat juda ko‘p organik moddalar to‘planadi. Bu moddalarning bir qismi hali to‘la chirimagan va o‘zining dastlabki holatini saqlagan organik qoldiqlar bo‘lsa, ikkinchi qismi chirish protsessi natijasida o‘zgargan to‘q tusli va murakkab tarkibli kompleks organik birikma, ya’ni chirindi-gumusga aylangan va tuproqning mineral qismiga shimilib ketgan bo‘ladi.Tuproq paydo bo‘lishi va tuproq unumdarligining rivojlanishi hamda yaxshilanishida chirindinig ahamiyati katta. Chirindi o‘simliklarning oziqlanishi uchun zarur va biologik ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘plab oziq elementlari, ayniqsa azot va karbonat angidridning asosiy manbaidir. Tuproq paydo bo‘lishi jarayoniga turli omillarning ta’siri natijasida tuproq tarkibidagi minerallar, tog‘ jinslari va organik qoldiqlar to‘xtovsiz maydalanadi va parchalanadi hamda tuproq tarkibida mayda zarralar aralashmasi, ya’ni dispers tizim hosil bo‘ladi. Ana shu tizimdagi diametri 0,2-0,01 mm atrofida bo‘lgan zarrachalar tuproq kolloidlari deyiladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilsa bo‘ladiki, yer tirik jonzod hisoblanadi,chunki genetik qarash bo‘yicha ona jins mavjud deb hisoblangan. Hozirgi paytda

unumdorlikni oshirish uchun har xil mineral o‘g‘itlar beriladi, lekin bu eng yaxshi usul emas deb o‘ylaymiz. Hosildorlikni oshirish uchun ishlov beriladigan uchastkadagi tuproqni uzoqroq joydagi tuproq bilan almashtirish va birdaniga aralashtirish kerak. Shunda notanish qarama-qarshi jinsdagi tuproqlar uchrashib yangi mukammalroq avlod hosil qiladi, ya’ni hosildorlik oshadi deb o‘ylaymiz. Demak, quyidagi yerga ishlov berish usulini amalga oshirish kerak: haydalayotgan uchastkadagi tuproqni kolloid holga keltirib uzoqroq joyga sepish zarur. Bu jarayon amalga oshirilayotgan paytda tuproqqa mineral o‘g‘itlarni ham qo‘sish yanada yuqori natijalar beradi. Yer haydalgandan keyin boronalash chog‘ida ikki jinsli tuproqlar butkul aralashib ketadi. Bundan tashqari ikki jinsli tuproqlarning bir-biriga intilish effekti ham katta rol o‘ynaydi, sug‘orish paytida bu protsess tezlashib ketadi.


Biz taklif etayotgan usul har xil texnikaviy ijro orqali amalga oshirilishi mumkin. Quyida shu texnikaviy ijrolarning bir ko‘rinishi tavsiya etiladi. Texnik izoh 1-shaklda keltirilgan.



1-shakl. Texnik qurilmaning sxemasi.

Yerga ishlov berish mashinasi qo‘yidagilardan iborat: traktor 1, uskuna ramasi 2, yerni bo‘shatish moslamasi 3, kovshli rotor 4, transporter 5, rama gidrotsilindri 6, quvvat beruvchi val qutisi 7, kardan uzatma 8, sochgich baraban 9.

Texnikaviy qurilma qo‘yidagicha ishlaydi: uskuna ramasi 2 gidrotsilindr 6 yordamida h chuqurligiga, ishchi holatiga tushiriladi. Quvvat beruvchi val qutisi 7 ishga tushiriladi, aylanma harakat kardan uzatma 8 orqali traktor 1 ning harakat boshlashi bilan ishga tushiriladi. Yerni bo‘shatish moslamasi 3 ta’sirida bo‘shatilgan tuproqni kovshli rotor 4 transporter 5 ga tashlab beradi, o‘z navbatida transporter 5 sochgich val 9 orqali tuproqni L masofaga iloji boricha kolloid holatigacha maydalab sochib tashlaydi. Sochgich val 9 sxemasi 2-shaklda ko‘rsatilgan.



2-shakl. Tuproqni sochuvchi baraban.  
1- baraban, 2- qovurg‘a, 3- zanjirli uzatma yulduzchasi.

Transporterdan tuproq sochgich barabanga kelib tushganda baraban va qovurg‘a oval qilinib tayyorlanganligi uchun ular atrofga maydalanib sochilib ketadi. Qovurg‘adan tuproq bo‘laklariga ta’sir etgan kuch hisobiga ular qovurg‘a ovali radiusi bo‘yicha tarqaladi. Bu holat birinchi qavm tuprog‘idagi genlarning ikkinchisi bilan yaxshilab aralashib ketishini ta’minlaydi, natijada unumdonlik oshadi. Yuqoridagi xulosalar uy sharoitida o‘tkazilgan eksperimentlarga asoslangan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. S.A Azimboev. Dehqonchilik, tuproqshunoslik va agrokimyo asoslari. “IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti Toshkent-2006.
2. Uz.denemetr.com 8-mavzu: Yerga ishlov berish, texnologik jarayonlar, haydash usullari, chuqurligi va sifati.
3. Uz.denemetr.com 13-mavzu: Almashlab ekish.